



XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

VII-12-217-1-0-K/25

Andijon viloyati

Andijon viloyatida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflarini qayta ko'rib chiqish va ma'qullash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4845-son qarori 4-bandi, 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-sonli Farmoni, viloyat hokimligining 2025-yil 11-avgustdagi bildirgisi, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-avgustdagi 01/08-15-/1649-sonli xulosasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi 729-sonli xatiga asosan hamda hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI

1. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i I.Mirzayevning Andijon viloyati hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish hamda qabul qilish va saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari yuzasidan taqdimoti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi viloyat boshqarmasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining viloyat hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari yuzasidan berilgan takliflari inobatga olinsin.

3. Andijon viloyati hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, viloyat sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi

boshqarmasi (A.Ikramov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish choralari ko'rib borsin.

5. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i (I.Mirzayev) tuman va shahar hokimliklari hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

bir oy muddatda hududlar, binolar va inshootlar ning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning talablarini o'rganib chiqib, qo'shimcha qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus chiqindi qutilari joylashtirilishini;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari uchun aholi tomonidan majburiy to'lovlarni to'lash va hisobini yuritish ishlarini yagona elektron tizim orqali amalga oshirilishini ta'minlasin.

6. Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 28-iyundagi VI-61-91-1-0-K/24-sonli qarori hamda Andijon viloyat hokimining 2023-yil 26-iyuldagi 196-1-0-Q/23-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (R.Eshonov) ushbu qarorni matbuotda e'lon qilsin hamda viloyat hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Omanov), ijrosini ta'minlash viloyat hokimining birinchi o'rinbosari D.Karimov hamda viloyat hokimining o'rinbosari (U.Jo'rayev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror 2025-yil 1-sentyabr (tadbirkorlik subyektlari uchun 2025-yil 1-dekabr) kunidan e'tiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi



AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-12-217-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha
xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori**

№	Shaharlar bo‘yicha	QQSsiz	QQS bilan
1	Bir kishiga bir oyda	5 982 so‘m	6 700 so‘m
2	Yuridik tashkilotlarga bir metr ³ hajm uchun	75 000 so‘m	84 000 so‘m
	Tumanlar bo‘yicha	QQSsiz	QQS bilan
1	Bir kishiga bir oyda	5 446 so‘m	6 200 so‘m
2	Yuridik tashkilotlarga bir metr ³ hajm uchun	65 000 so‘m	72 800 so‘m